

O'ZBEK TILIDAGI SHAXS MA'NAVIYATINI IFODALOVCHI VOSITALARNING MAXSUS LUG'ATLARDA BERILISHI

Ibodova Malika Gulmurodovna

Qarshi davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13734097>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi shaxs ma'naviyatini ifodalovchi vositalarning maxsus lug'atlarda berilishi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: ma'naviy, ma'naviyat, ma'naviy-ijtimoiy, ma'naviy-siyosiy, ma'nan, ma'no, ma'nisiz, ma'nosiz, e'tiqod, adolat, odillik.

Ko'p tilli lug'atlarni yozish bilan bog'liq muammolar, qoida tariqasida, leksikografiya muammolariga bag'ishlangan to'plamlardagi maqolalarda yoki lug'atlarga kirish maqolalarida ko'rib chiqilmoqda. Aynan shunday lug'atlarda "ma'naviyat" leksik kategoriyasiga oid leksemalarning tarjimalarini qiyoslash muhim. Ulardagi ma'nolar qanchalik mos kelishini tekshirish zarur. Xususan, «Spirituality» termini tafakkur va xulq yetukligini anglatishdan ko'ra ko'proq diniy e'tiqod, e'tiqod mustahkamligi kabi tushunchalarga yaqin turadi. Darhaqiqat, ingliz tilining Webster izohli lug'atida «spirituality» so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: *«of the spirit or the soul as distinguished from the body or material matters»* (p.1373) Ya'ni tana yoki moddiy narsalardan ajratilgan ruh yoki qalbga oid; shuningdek, ushbu leksemdan so'ng lug'atda *«spiritual character, quality, or nature»* (p.1373) (ma'naviy xususiyat, sifat yoki tabiat) degan tushunchalar keltiriladi.

«Ruhiyat» atamasi ijobiy sifatlanishga ehtiyojmand; ya'ni «spirituality» istilohi «high spirituality» deya sifatlanganda, «yuksak ruhiyat» ma'nosini ifodalaydi va shu shaklda «ma'naviyat» so'zining aynan muqobili. Kishi nutqda «din» (religion) so'zini «e'tiqod» (faith) istilohi o'rnida ishlatishi, boshqa hollarda esa «ma'naviyat» (spirituality) so'zi «din» (religion) atamasi o'rnida qo'llanishi mumkin. Qo'llanish o'rni va vaziyatga ko'ra, bu so'zlardan biri o'rnida boshqasi ishlatilishi mumkin. Ularning tavsifi, talaffuzi, ma'nosi va faoliyati, sinonimlari, etimologiyasi yoki, hech bo'lmaganda, ularning bir qismi haqida ma'lumot berish uchun foydalanish qulayligi, so'zlar ma'lum bir tartibda joylashtirilgan, endi ko'pchilik tillarda alifbo tartibida, katta hajmdagi lug'atlarda ma'lumotlar badiiy asarlardan iqtiboslar bilan tasvirlangan.

Amaliy leksikografiya ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi, ona va o'rgatishni ta'minlaydi, leksemalarni tavsiflash va normallashtirish, tillararo muloqot, til lug'atini ilmiy o'rganishni anglatadi. Ma'naviyatga oid leksemalar har ikki tilning lug'atida milliy qarashlariga asoslanib izohlanadi, shaklida ham farq seziladi.

“Sen shohsanu, ammo *nafs*ingga mag'lub va xorsan, u gado bo'lsa ham, *nafs*ini o'ziga asir etgan. To tirik ekansiz, har ikkingizning holingiz shunday kechadi. U gado va sen shohning yashash tarzingiz shundaydir. O'lganingizdan keyin esa u – shoh, sen esa – gado bo'lasan. Chunki sen *mast* eding, u esa *to'g'ri yo'ldan boruvchidir*”. “You are the king in your country, but a slave for your *cupidity* within your soul. And my friend is a slave and a beggar who doesn't have a penny, but he is the King for *cupidity* and never obeys it. Your ways of life are quite different from each other. You're the King today, when you're alive, but you will be a slave when you die. He is a slave for God's will today, when he is alive but will be the king when he

dies hope to God. Because you're *bilious and dishonest* and he is *honest* enough, I think". Bu parchada keltirilgan «nafs» so'zi ma'naviyat umumiy semali atov birliklarining markaziy konseptlaridan biridir. Tushuncha zamirida nisbatan salbiy ma'no anglashiladi.

Akademik A.Rustamov «So'z xususida so'z» kitobida nafsning quyidagi xususiyatlarini tavsiflaydi: «Nutqda *nafs* so'zi hayvonlarga, asosan, insonga nisbatan ishlatilib, kishining o'z jismoniy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishini anglatadi. Bu odamda me'yordan ortiq yoki axloq doirasidan tashqari bo'lsa, unday kishini «nafsi yomon» yoki «badnafs», yoxud «nafsi tiyolmagan» kishi deb ataydilar. Agar nafsi me'yor va axloq doirasida bo'lsa, bunday odamlarni «nafsi yaxshi» yoki «neknafs» deyish mumkin. Agar nafsoniy talabi me'yoridan kam bo'lsa, bunday kishi «nafsi o'lik» yoki «nafsi tiygan kishi» deyiladi. Insonda aql bo'lgani uchun nafsini boshqara oladi. Nafsini tiya olgan shaxsning insonligi, nafsini tiyolmaganning hayvonligi ortiq bo'ladi». «Ma'naviyat» umumiy semali atov birliklar mumtoz lug'atlarda ham o'ziga xos yoritilgan.

Mumtoz asarlarimiz so'zlarini tushunishga qaratilgan lug'atlarda, xususan, «Navoiy asarlari lug'ati»da «ma'naviyat» leksemasi lug'at so'zlik shaklida uchramaydi. Biroq «ma'rifat» leksemasiga «bilish, tanish, bilim» izohi berilgan. Albatta, bu izohlar zamirida cheksiz ma'no bor, ba'zan buni o'quvchi tushunmasligi mumkin. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da bu leksemaga aniq va to'liq ta'rif berilganligi mumtoz lug'atlar ta'riflari va ularning izohlariga ham qayta nazar solishni, o'quvchilar uchun oson, qulay, sodda usulda ta'riflash zarurligini ko'rsatadi. To'g'ri, *ma'rifat* so'zi bugungi kunda nutqiy faol bo'lgani bois ma'nosini anglash bizga qiyinchilik tug'dirmaydi, ammo «ahsan» leksemasi borki, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ham nutqimizda ham uchramaydi. Bu leksema ma'naviyatga oid so'z, ma'nosi «juda yaxshi», «eng go'zal» ma'nosini anglatishi lug'atda aks etgan. Bu ko'p ma'noli leksema, uni inson va narsa-hodisalarga ham qo'llash mumkin. Insonga nisbatan qo'llanganda, «ma'naviyat» umumiy semali atov birliklarga oid bo'ladi.

Tilshunosligimizning daslabki imlo lug'atlarida, ya'ni «O'zbek tilining imlo lug'ati» «ma'naviy, ma'naviyat, ma'naviy-ijtimoiy, ma'naviy-siyosiy, ma'nan, ma'no, ma'nisiz, ma'nosiz» atov birliklari so'zshakl sifatida berilib ularning imlosi aks ettirilgan.

«O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati»da «ma'naviyat» leksik kategoriyasining yadro qatorlaridan joy oladigan «adolat va odillik» leksemalariga «xolis va haqqoniy xatti-harakat, holat» tarifi berilib, «adolat» so'zshakliga «adolat – asosan qonun-qoida va umum ishidagi xatti-harakatga nisbatan qo'llanadi», «odillik» so'z shakliga «oddiy munosabatlardagi xolis va odilona xatti-harakat» ma'nosi qo'llangan. Bu ta'riflar «O'zbek tilining izohli lug'ati»dagi ta'riflardan qanchalik farq qilishini, ma'noviy kengayganligini, leksik imkoniyatlari yuqori baholanganligini bilish mumkin.

ADOLAT [*a.*— odillik]. **1** Odilona ish tutish, odillik; **2** Adolat (xotin-qizlar ismi). Sinonimlar lug'atidagi «qonun-qoida va umum ishidagi xatti-harakatga nisbatan qo'llanadi» ta'rifi «siyosiy adolat» ma'nosiga xoslanadi. «O'zbek tilining izohli lug'ati»dagi ta'rif keng, umumiy xususiyatlarni o'zida jamlaydi.

ODILLIK **1** Odil kishilarga xos xatti-harakat ta'riflariga tayanib aytish mumkinki, ma'naviyatga oid leksemalar ma'nodoshlari uslubiy va semantik jihatdan farq qilishi mumkin.

Shu o'rinda dastlabki xulosa chiqadiki, har bir lug'at o'zining faoliyati, maqsadi doirasidan kelib chiqib so'zshakllarga izoh beradi.

“Falsafa” qomusiy lug‘atda **“ADOLAT”** leksemasining ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, iqtisodiy tomonlariga ta’rif berilgan. Sharq va G‘arbning ma’naviy dunyosidagi qarashlar asosida ta’riflangan. Bu lug‘atda so‘zshakllarning etimologik ta’rifi hammasida bir xil shaklda aks etmagan. Ba’zi so‘zshakllarda etimologiyasi berilgan. Ushbu lug‘atda ma’naviyatga oid leksemalarga xalqning hayotidagi o‘rni misolida ta’riflab berilgan.

“Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati”da “adolat” leksemasiga etimologik ta’rif berilgan holda “odillik va to‘g‘rilik” ma’nodoshi kiritilgan. Bu ma’nodoshlik qatorini boyitishga xizmat qilgan. Mazkur leksemaning ta’rifida mavzuni huquq va jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda yoritilgan. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” tamoyillari misolida izohlangan.

“Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da “adolat” leksemasiga “ozodlik, baxt, tenglik, do‘stlik, tinchlik” kabi azaliy tushunchalar bilan bog‘lab izohlangan. “Ijtimoiy adolat tushunchasi” shakllangan va unga ta’rif berilgan. Tarixiy va zamonaviy qarashlar misolida keng yoritilgan.

“Ma’naviyat” umumiy semali atov birliklar turkiy tilli davlatlar lug‘atlarida shakl va mazmun jihatidan o‘xshashini “Turkcha-o‘zbekcha” lug‘ati orqali qiyosiy o‘rganish mumkin. Ushbu lug‘atda “adalet” shaklida yoziladi. Ma’nosi esa “odilona va xolisona ish tutish, haqqoniylik, odillik” ma’nolarida aks etgan. Bundan ko‘rinadiki, milliy va ma’naviy qarashlar lug‘at birliklarida ham o‘z aksini topadi.

“O‘zbek tilining yuridik lug‘ati”da “adolat huquqi” birikmasi anglo-sakson huquq oilasi amalda bo‘lgan mamlakatlar huquqining manbasi, u Angliyada XV asrdan boshlab, Lord kansler tomonidan mustaqil sudya sifatida qirol va uning kengashi nomidan yakka tartibda ishlarni ko‘rishi natijasida va shu asosda tizimli ravishda “adolat” doktrinasi sifatida qabul qilingan qarorlar hisoblanadi” izohi aks etganligi maxsus lug‘atlarning imkoniyati, izohining faoliyatidan kelib chiqib belgilanishini anglash mumkin.

References:

1. Эргашев И. Миллий истиқдол ғояси. – Тошкент: Академия, 2005. – Б. 53.
2. Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт модели. Монография. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 192 б.
3. Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 46.
4. Ҳакимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008.
5. Ҳамраева Ш. Ўзбек тили морфологик анализатерининг лингвистик таълимоти. – Тошкент: СлобеЭдит, 2020.
6. Имомназаров М., Эшмухамедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. – Тошкент: Ислон университети, 2000. – 360 б.
7. Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
8. Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 140.